

**Amatov Javohir Muxtorbek o‘g‘li**

*O‘zbekiston Davlat san‘at va madaniyat inistitutining*

*Farg‘ona mintaqaviy filiali. 4-bosqich talabasi.*

**Tursunov Bekzodjon Shavkatovich**

*O‘zbekiston Davlat san‘at va madaniyat inistitutining*

*Farg‘ona mintaqaviy filiali o‘qituvchisi*

**Annotasiya.** *Mazkur maqolada doira cholg‘usi, uning kelib chiqishi va o‘zbek musiqasidagi o‘rni korsatib o‘tilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *doira, musiqa, cholg‘u, tovush, childirm.a*

**Kirish.** Cholg‘u ijrochiligida doira san‘ati o‘ziga xos yetakchi o‘rin tutadi. Bu cholg‘u barcha cholg‘ular ichida uzoq tarixga egaligi va ijrochilik san‘ati bilan ajralib turadi. Kishilik jamiyatining ibtidoiy davrlaridan boshlab qadimgi odam qadamlarining bir maromda yerga tashlanishi, ov yoki boshqa jamoa tadbirlaridagi takroriy harakatlar, qo‘llarini-qo‘llariga, badaniga urishdan paydo bo‘luvchi sadolar, turli mehnat qurollari, buyumlar yoki toshlarning bir-biriga tegishidan kelib chiqadigan ritmik tovushlar — urma cholg‘ularning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Shuningdek, ritm-usul ibtidoiy inson hayotining markaziy unsuri bo‘lib, u jamoa faoliyatini birlashtiruvchi, uni borliq - tabiat va koinot bilan uyg‘unlashtiruvchi yagona vosita bo‘lgan. Eramizdan avvalgi ikki minginchi yillikka oid Samaylitosh arxeologik qazilmalaridan topilgan tarixiy obidalarda doirasimon cholg‘ularda ijro etayotgan sozandalar tasvirlangan. Bu esa doiraning qadim zamonlardayoq ijrochilik amaliyotida mavjud bo‘lgan urma cholg‘u ekanligini tasdiqlaydi. Markaziy Osiyo hududlarida olib borilgan qazilmalar natijasida olingan ma‘lumotlarga qaraganda, islom davridan oldingi zamonlarda doiraga asosan ayollar jo‘r bo‘lgan. Ularning doira usullariga mos qo‘shiq aytishi va raqsga tushishi o‘sha davrlarda shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelgan. Doyra, qayroq, zang va safoyillar oymoma marosimlarida koshchinlar tomonidan keng qo‘llanilgan. Niso peshtoqlarida tasvirlanishicha, doira diniy marosim raqslariga jo‘r bo‘luvchi cholg‘u sanalib, ayrim hollarda raqsga tushuvchilarning o‘zlari, ba‘zan esa maxsus doirachilar tomonidan ijro etilgan.

Doira – aniq tovush balandligiga ega bo‘lmagan urma zarbli cholg‘ulardan biridir. Doiraning gardishi, asosan, tut, o‘rik, yong‘oq, tok daraxtlarining yog‘ochidan aylana shaklida yoki bo‘laklarga bo‘lib, tayyorlanadi. Hozirgi kunda akatsiya, klyon daraxtlaridan ham xomashyo sifatida foydalanilmoqda. Doira gardishining diametri avvallari 39 sm. dan, 42 sm. gacha kattalikda yasalgan bo‘lsa, hozirda esa uning diametri 36-38 sm.ni tashkil etadi. Uning bir tomoniga teri qoplanadi. Gardishning teriga tutashgan ichki tomoni tovushni bo‘g‘masligi uchun biroz yo‘nilgan bo‘lishi

lozim. Doira cholgʻusi uchun, asosan, buzoq, tuya, toychoq terilaridan foydalaniladi. Bunda avvaldan ishlov berilgan va ivitilgan teri gardishga maxsus yelim (sirach) yordamida yopishtiriladi. Doira gardishning ichki tomoniga 50 tadan 75 tagacha maxsus metall halqachalar (shingʻiroqlar) oʻrnatiladi. Cholgʻu silkitib ijro qilinganda ushbu halqachalar yoqimli tovush hosil qiladi. Doirani quruq joyda saqlash tavsiya etiladi. Sababi, unga qoplangan teri namlik taʼsirida boʻshashib, oʻzining jarangdor tovushini yoʻqotadi. Bu holatda doirani oftobda, olovda yoki maxsus prajektorlarda ehtiyotkorlik bilan toblab, quritish zarur. Ushbu jarayonda avval doiraning gardishi, keyin esa terining gardishga tutashgan qismi quritilib, asta-sekin toblanadi. Soʻngra doiraning teri qoplangan qismi qizdiriladi. Doira ritmik va dinamik usul imkoniyatlariga juda boy cholgʻu boʻlib, unda ikkala qoʻlning barmoqlari va shapaloq bilan ijro qilinadi. Doira cholgʻusi yillar mobaynida ayrim qadimiy tasvirdagilarga nisbatan baʼzi oʻzgarishlarga uchragan. Masalan, hozirgi doira gardishida kichkina lappaklar oʻrnatiladigan teshiklar yoʻq. Ularning oʻrnini gardishning ichki tomonidan osilgan maxsus temir halqachalar, yaʼni “shingʻiroq”lar egallagan. Mazkur cholgʻu shuningdek, tojik, uygʻur xalqlarida ham keng tarqalgan. Doirada ijrosidagi usullar tizimi qadimdan shakllangan boʻlib, ustozlar tomonidan “bum”, “bak”, “bakko” yoki “bakka”, Xorazmda “gup”, “taq”, “taqqa” atamalari bilan yuritilgan. Bunda “bum” nisbatan past tovush boʻlib, bunda toʻrtta barmoqni birgalikda zich juftlab, membrana (teri) oʻrtasiga urib ijro etiladi. “Bak” ham membrana oʻrtasiga, faqat barmoqlarni kergan holda urib, ijro qilinadi. Doira cholgʻusi xalq orasida “childirma”, “chirmanda” nomlari bilan ham ataladi.

Oʻzbek doirasining ommalashishi xalq orasida oʻz eshituvchilarini topishiga birinchi poydevor qoʻygan inson Oʻzbekiston xalq artisti Usta Olim Komilovdir. Xalq sanʼatkorlari orasida mashhur sozandalardan biri, umrining yarim asrga yaqin davrini xalq sanʼatini oʻrganish va rivojlantirishga bagʻishlagan. Milliy cholgʻulardan u chang va doira sozlarini juda yaxshi oʻzlashtirgan edi. Doira cholgʻu ijrochiligini mukammal darajaga olib chiqib, cholgʻu uchun yangi-yangi asarlar yaratgan. Anʼanaga sodiq qolgan holda ustozlik tizimini yoʻlga qoʻygan, shu bilan birga oʻzbek musiqasidagi boy va rang-barang raqs usullarini toʻplashda oʻzining ulkan hissasini qoʻshgan. Usta Olim Komilovning Doira ijro uslubi raqs terma usullariga asoslangan boʻlib oʻzbek raqs sanʼatining butun dunyoga targʻibotiga katta hissa qoʻshgan. Raqs usul termalarining yigʻindisi «Qoʻsh qars III»da jam boʻlgan. «Qoʻsh qars» 48tadan ortiq raqs terma usullarni oʻz ichiga olgan boʻlib, u usullar: «qoʻsh qars», «yakka qars», «oqsatma», «gul oʻyin» kabi oʻz nomlariga ega. Ushbu usullar asosida «Qoʻqoncha», «Burulcha», «Tantana», «Katta oʻyin» va yana bir nechta terma usullar darsliklari yaratildi.

Xulosa. Hozirda oʻzbek doirachilik maktabining bir nechta uslubiy yollari maktab darajasida davom etib kelmoqda. Raqs terma usullari esa, murakkab usullardan tashqari yana qochirimli va yovvoyi qochirimli yoʻnalishlar ham rivojlanib bormoqda. Shuning sabab musiqa taʼsirchan kuchga ega boʻlib, tarbiya vositasi, inson ruhiyatiga hayotbaxsh kuch bera oladigan jon ozigʻi boʻlib, u kishilarning zavqlanishi, maroqli dam



olishi, taskin topishi, fikrlashi, falsafiy mushohada qilishi uchun yordam vazifasini o'taydi. Demak, musiqa faqat badiiy ijod, san'at turi bo'lib qolmasdan, balki ma'naviy madaniyatning muhim bir qismi sifatida ham o'rganilishi lozim. Musiqa madaniyatimizda sof ma'nodagi muallim-ustozning o'zi, ayni paytda u ham murabbiy, ham sozandalik san'atini o'zida mujassamlashtirgan chin ma'nodagi Ustoz hisoblanadi. Shu tufayli o'rgatish jarayonining o'ziga xos siru asrorini bilmay turib, bu an'ananing xususiyatlarini todaligicha anglab ololmaymiz.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” – Toshkent: “Ma'naviyat” nashriyoti, 2008-y.
2. Akbarov I. “Doiraning zarblari”. O'zbekcha usullar to'plami – Toshkent, 1952-y.
3. Islomov D. “Maxsus cholg'u” – Toshkent: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2015-y.
4. Rahmatov. N “Doira”- o'quv qo'llanma Toshkent , 2016 yil
5. The uniqueness of the art of music and its role in human life Saarj Journal on Banking & Insurance Research (SJBIR) ISSN: 2319-1422 Vol. 11, Issue 1, January 2022 SJIF 2021= 7.58 A peer reviewed journal DOI: 10.5958/2319-1422.2022.00001.7 9-11
6. THE ART OF MUSIC AND ITS ROLE IN HUMAN LIFE Chop qilingan SAARJ Journal on Banking & Insurance Research (SJBIR) FAKTORI: 7.58 Google Scholar Vol.12, 01/2022 Impact Factor: 82-87
7. Tursunaliyevich, F. N, & Sharofiddinovich, S. S. (2023). Barqaror Rivojlanishni Maktabgacha Ta'lim Yoshidagi Bolalarga Singdirish. JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(2), 26–29.
8. Sadullayev Sirojiddin Xudoyberdi o'g'li, & Nasriyev Farahmon Tursunaliyevich. (2022). ROVOCH O'SIMLIGINI ISSIQXONADA YETISHTIRISH, UNING QISHLOQ XO'JALIGI, OZIQ-OVQAT VA TIBBIYOTDAGI O'RNI. *Proceedings of International Educators Conference, 1(1)*, 182–186. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/iec/article/view/217>